

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11176590>

## BO'LAJAK PEDAGOGLARDA MULOQOTGA KIRISHISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Muratova Munavvar O'rol qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

[munavvarmuratova1@gmail.com](mailto:munavvarmuratova1@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqola bo'lajak pedoglarda muloqot madaniyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda tarbiyalanuvchilar nutqida ko'p uchrayotgan muammolar, ularning yechimlari va ularning oldini olish uchun chora tadbirlarini ishlab chiqish, oilada, ko'chada, muloqot madaniyatini ta'minlashning didaktik ta'minoti bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Bo'lajak pedoglar, ota-ona, pedagog, muloqot, chora-tadbirlar, muhit, hamkorlik, kommunikativ muloqot, ta'lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondashuv, mahorat.*

Muloqotda pedagogning eng yaxshi fazilatlari va xatti- harakatlari tarbiyalanuvchilarning ideali sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk shaxs va komil inson qilib tarbiyalashda biz kattalar ta'lim tarbiyaviy jihatdan ular uchun ko'zgu bo'lib xizmat qilishimiz lozim.

Bo'lajak pedagoglarda muloqotga kirishish madaniyatini tarbiyalashda kasbiy va shaxsiy sifatlarga alohida e'tibor qaratish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi. Albatda har bir pedagog o'z kasbiga mehri qo'ymas ekan yurtimiz qo'ygan ulkan maqsadlarga erishishda qator muammolrga duch kelaveradi. Ma'naviyatimizni tiklash,

uni yuksaltirish, ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlangan mamlakatlar qatoriga ko'tarish, bolalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik pedagoglar zimmasiga yuklatildi. Talabalarning ma'naviy muhitining shakllanishi pedagoglarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda pedagoglarning shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari talabaning ideali sifatida namoyon bo'ladi. Talabaning pedagog shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatgi-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. Pedagogik muloqot madaniyati o'quvchilarning faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda pedagogning muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala bolalar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarda muloqot madaniyatini to'g'ri shakillantirishning samarali usullaridan biri bu ularda:

- ✓ kitob o'qish madaniyatini tarbiyalash;
- ✓ ma'naviy-marifiy tadbirlarda faol ishtirokini ta'minlash;
- ✓ ta'limning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish;
- ✓ qo'shimcha tillarni erkin o'rganish.

Yuqorida keltirilgan fikrlar bo'lajak pedagoglarning har tomonlama yukslishiga yordam berish bilan bir qatorda kelajakdagi maqsadlarini oson amalga oshirishga yordamchi vosita bo'lib hizmat qiladi.

Bu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Faqat har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etishning o'zi kifoya. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratova, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA'LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
2. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. *International Journal of Pedagogics*, 3(10), 43-47.
3. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. *International Journal of Pedagogics*, 3(10), 43-47.
4. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.
5. Muratova, M. O. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AKT NING SALBIY TASIRI. In *ПРОБЛЕМЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ* (pp. 7-11).
6. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (6), 36-42.
7. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.